SIRDARYO VILOYATI MIRZAOBOD TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 2-iyul | 188-9-125-Q/25 | Mirzaobod tuman hokimligi

Mirzaobod tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga hududlarni (mikrohudud) biriktirish to‘g‘risida

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning 27-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomning 39-bandiga asosan tumanda maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish jarayonida, umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud)ni aniq belgilab olish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 21^{1}-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish bo‘yicha umumta’lim muassasalariga biriktirilgan hududlar (mikrohudud) tavsifi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga qamrab olish, umumta’lim muassasalari pedagog xodimlari tomonidan bolalarni birma-bir (uyma-uy) ro‘yxatga olish orqali amalga oshirilsin.

3.Tuman hokimi o‘rinbosari S.Kenjayev, tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i D.Tanikulova hamda umumta’lim maktablari rahbarlariga:

Maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga, umumta’lim muassasasi bitiruvchilarini ta’limning keyingi bosqichiga to‘liq qamrab olish, o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan monitoring olib borish va uning natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki, tumandagi umumta’lim muassasalari rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

5. O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi (M.Mavlonov)ga maktab yoshidagi bolalarni qamrab olishda umumta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati B.Abdullayev hamda “Yangi Mirzaobod” gazetasi tahririyatiga:

Mazkur qaror ijrosi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Kenjayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Umarov**

Mirzaobod tumani hokimining
2025-yil 2-iyuldagi
188-9-125-Q/25-son qaroriga
1-ilova

Mirzaobod tumanidagi umumta'lim maktablariga biriktirilgan mikrouchastkalar

T/R	Maktab raqami	Maktab joylashgan MFY	Mikrohudud chegarasi
1	1-maktab	Navro‘z MFY	Mustaqillik, Nodira, Bahor, Farobiy, Cho‘lpon, Istiqbol, Sayohat, Yangidavr ko‘chalari
2	2-maktab	Tinchlik MFY	Oqmaktab, Ziyo, Kenglik, Obod ko‘ngil, Pillakor, Olmozor, O‘rikzor, Yoshlar, Totuvlik, Gulzor, Sohil, O‘zbekiston ko‘chalari
3	3-maktab	Bog‘iston MFY	Zulfiya, Vatanparvar, Navo, Istiqlol, Ziyokor, Nasaf, To‘linoy, Mevazor, Sarbon, Zukkolar, Nastarin, Nurli manzil ko‘chalari
4	4-maktab	Tinchlik MFY	Tinchlik MFYdagi Mehribon, Barqaror, Ahillik, Yulduz ko‘chalari, Nurafshon MFYdagi Fidokor, Mohlaroyim ko‘chalari, Navro‘z MFYdagi Ahillik, Gulzor, Taraqqiyot ko‘chalari, Do‘ngariq MFYdagi Paxtaobod ko‘chasi

5	5-maktab	Toshkent MFY	Toshkent, Abdulla Qahhor, Ziyo, Shodlik, Bahor, Baxt, Do‘stlik, Oybek, Yangi avlod, Bo‘ston, Bunyodkor, Yangi hayot, Mustaqillik, Zomin, Ahillik, Tinchlik, Kamolot, O‘zbekiston, Orzu, Bobur, Istiqlol, Navro‘z, Obod turmush, Namuna ko‘chalari
6	6-maktab	Toshkent MFY	Toshkent, A.Navoiy, Furqat, Navbahor, Buyuk yurt, Milliy meros, Guliston, Ezgulik, Yuksalish, Zumrad, Bobur, Yoshlar, Ishonch, Umid ko‘chalari
7	7-maktab	Nurafshon MFY	Nurafshon MFYdagi barcha ko‘chalar
8	8-maktab	Nurafshon MFY	Nurafshon MFYdagi Ittifoq, Saxovat, Parchayuz ko‘chalari hamda Qirg‘ovil qishloqlari biriktirilgan
9	9-maktab	Yangi Hayot MFY	Bahor ko‘chasi
10	10-maktab	Do‘ngariq MFY	Shodiyona, Nayman, Humo, Karvonsaroy, To‘maris, Chaman, Alpomish, Tinchlik, Kumushtola, Bag‘rikeng, Yashnobod, Mash’al, Yoshlar ko‘chalari
11	11-maktab	Mirzacho‘l MFY	Ko‘klamoyim, Maslakdosh, Oqsaroy, Oltinko‘l, Orombaxsh, Tillakori, Hamid Olimjon, Fazo, A.Navoiy, Karvonsaroy, Nihol, Mirtemir, Navro‘z, Tabarruk ko‘chalari
12	12-maktab	Oydin MFY	Istiqlol, Yashillik, Uzumzor, Sihatgoh, ko‘chalari

13	13-maktab	Oqoltin MFY	Navbahor, S.Rahimov, Bunyodkor, Yoshlik, Yetuklik, Chorvador, Istiqlol, Sohilbo‘yi ko‘chalari
14	14-maktab	Oydin MFY	G‘allazor, Yangi kun, Terakzor, Qadriyat, Do‘stlik, Chinorli, Nurli, O‘zlik, Mardlik, Elgamadad, Olimlar ko‘chalari
15	15-maktab	Mirzo Ulug‘bek MFY	Zafar, Kamolot, Gulzorli, Islohot, ko‘chalari hamda To‘lak qishlog‘i biriktirilgan
16	16-maktab	Yangi hayot MFY	Samarqand, Zarkent, Gulchaman ko‘chalari
17	17-maktab	Navbahor MFY	Abdulla Qodriy, Oybek, Arnasoy, Qaldirg‘och, ko‘chalari va Nurli kelajak massivi
18	18-maktab	Dehqonobod MFY	A.Temur, Tinchlik, Hosildorlik, Obod turmush ko‘chalari.
19	19-maktab	T.Ahmedov MFY	Semurg‘, Madaniyat, Quvonch, Oydintong, Oqoltin, O‘zbekiston, Bunyodkor, Sarafroz, G‘allakor, Sayqal ko‘chalari.
20	20-maktab	T.Ahmedov MFY	Yangi zamin, Istiqlol, Bo‘ston, Marvarid, Sohibkor, Oltin vodiy, Qurilish, Jo‘shqin, Jasorat, Yoshlik, Tinchlik, E’zoz, Jiydazor ko‘chalari

21	21-maktab	Dehqonobod MFY	Istiqlol, Yoshlik, O‘rikzor, Obodlik, Shifokor, Do‘stlik, Chuqursoy, Sadaf, Baxt, Navbahor, Hurlik ko‘chalari
22	22-maktab	Navro‘z MFY	Gulchinor, Zomin, 8-mart, Xalqlar do‘stligi, Shafoat ko‘chalari
23	23-maktab	Navro‘z MFY	Ahillik ko‘chasi
24	24-maktab	Dehqonobod MFY	Nayman, Ahmad Yassaviy, Anorzor, Go‘zallik ko‘chalari
25	25-maktab	Mirzo Ulug‘bek MFY	Afrosiyob, Muborak, Beshyog‘och, Afsona, Xadra, Gulzorli, Rohat-1, Rohat-2, Murojaat, Fozillar, Samimiyat, Shunqor, Kumush tola, Porloq kelajak ko‘chalari
26	26-maktab	Bog‘iston MFY	Yangiobod massivi, Haydar massivi, Yoshlar ko‘chasi, Iftihor, Fidokor, Labaratoriya, Abdulla Qodiriy ko‘chalari
27	27-maktab	Do‘ngariq MFY	Mashal, Nastarin, Nuryog‘di, Ilg‘or, So‘limvodiy, Paxtaobod, Obihayot, Xamza, Hamjihatlik, Bog‘bon, Bog‘bon-1, Xamroz, Navguzar, Xuvaydo, Kosonsoy, Yangi kun, Ishonch, So'limgo‘sha ko‘chalari
28	28-maktab	Navbahor MFY	Yangiyer, Shirin, Fozil Yo‘ldosh, Gofur G‘ulom, Temir yo‘lchilar, Farhod, Yoshlar ko‘chalari
29	29-maktab	Haqiqat MFY	Haqiqat va Yangi O‘zbekiston MFYdagi barcha ko‘chalar

30	30-maktab	Haqiqat MFY	Sohibqiron, Yuksalish, Tiklanish, Taraqqiyot, Paxtakor, O‘smat ko‘chalari
31	31-maktab	Yo‘ldoshobod MFY	Yo‘ldoshobod MFYdagi barcha ko‘chalar
32	32-maktab	Bahoriston MFY	Bahoriston MFYdagi barcha ko‘chalar
33	33-maktab	Do‘ngariq MFY	Chaman, Tinchlik, Humo ko‘chalari
34	34-maktab	Bog‘iston MFY	Tinchlik, A.Navoiy, Oybek, Baynalminal, Sohil, Ostona, Sulola, Shifokorlar uyi, Charog‘on ko‘chalari
35	35-maktab	Navro‘z MFY	Navro‘z MFYdagi Zomin, 8-mart ko‘chalari, Bog‘iston MFYdagi Shodlik, Zulfiya, Vatanparvar ko‘chalari